

O‘ZBEK ONOMASTIKASIDA URBANONIMIYAGA OID TERMINOLOGIYANING QO‘LLANISHI MASALASI

Begimov Odil To‘xtamishovich

Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari doktori

begimovodil@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada shaharichi obyektlarini atoqli otlarini ifodalashda asosiy atama sifatida qo‘llanadigan “urbanonim” atamasining xususiyatlari tadqiq etilgan. Shu turga mansub atoqli otlarning liksikografik xususiyatlari tahlil qilingan va onomastik lug‘atlarda berilishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: urbonim, urbanonim, urbanonimiya, onomastika, onomastik makon, onomastik termin.

THE ISSUE OF THE USE OF URBANONYMS TERMINOLOGY IN UZBEK ONOMASTICS

Begimov Odil Tukhtamishovich

Karshi State Technical University, Head of the Department of Uzbek Language
and Literature, Doctor of Philology

ANNOTATION

The article studies the features of the term "urbanonym", which is used as the main term to express proper nouns of urban objects. The lexicographic features of proper nouns of this type are analyzed and ideas are put forward about their inclusion in onomastic dictionaries.

Keywords: urbanonym, urbanonym, urbanonymy, onomastics, onomastic space, onomastic term.

KIRISH

O‘zbek onomatologlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri mavjud onomastik terminologiyani tartibga solish hisoblanadi. Terminologiyani tartibga solish zaruriyati mavjud, chunki N. V. Podolskayaning "Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati"ning 2-nashri [8], E. Begmatov va N.Uluqovlarning o‘zbek tilidagi “Onomastik terminlarning izohli lug‘ati” [16] chop etilganidan so‘ng o‘tgan vaqt maboynda ko‘plab yangi atamalar paydo bo‘ldi. Albatta, ushbu lug‘atda qayd

etilgan atamalardan foydalanishda ham o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud. Ilmiy tadqiqotlarda hali muntazam qo'llanilmagan atamalarning lug'at ta'riflari ba'zi hollarda sezilarli o'zgarishlarga uchragan. So'nggi bir necha o'n yilliklarda rivojlanishi jadallashgan onomastik makon ko'lami ayniqsa muammoli. Nazarimizda, mavjud holat shahar va qishloq onomastika makoniga tegishli atoqli otlarni ifodalashda qo'llaniladigan terminologiyani tartibga solish va aniqliklar kiritishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi shahar onomastik makonida asosiy atama hisoblangan urbanonim atamasining qo'llanishini tahlil qilish orqali shu turkumga mansub atoqli otlarning liksikografik talqinini aniqlashdan iboratdir.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiylik va ijtimoiylik tendentsiyaga asoslanadi, ya'ni ma'lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy va ijtimoiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, onomastik tadqiqotlarda mavjud umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi. Asosiy tadqiqot usuli sifatida materiallarni tasniflash, tavsiflash, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki uzoq vaqt davomida tadqiqotchilar toponimlarning bir ko'rinishi sifatida shahar ichidagi obyektlarning nomlarini belgilash uchun "ko'cha nomlari" yoki "mikrotoponim" va "toponim" atamalaridan foydalanganlar. Bu turkumga mansub otlar uchun o'ziga xos atamaning yo'qligi o'sha davrda shahar ichi obyektlarini o'rganish, birinchidan, tilshunos olimlarning e'tiborini tortmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, bunday obektlar mikrotoponimlar sifatida tadqiq etilganligida namoyon bo'ladi.

O'tgan asrning 60—70-yillaridan e'tiboran shahar ichi obyektlari nomlarining o'ziga xos xususiyatlarini lingvistik jihatdan tadqiq qiluvchi dastlabgi ishlar yuzaga kela boshladi. Shu sababli, atoqli otlarning ushbu guruhini belgilash uchun maxsus atamaga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu narsa dastlab, N. V. Podolskayaning mos ravishda "Markaz toponimiyasi" [11] va "Markaziy Rossiyaning toponimiyasi" [10] to'plamlarida nashr etilgan "Markaz urbonimiyasi" va "RSFSR Markaziy

mintaqalarining Urbanonimiyasi” maqolalarida o‘z ifodasini topdi. Diyarli ikki yil ichida nashr etilgan maqolalarda ushbu atamaning ikki xil shaklda ifodalanilganini ko‘rish mumkin. Keyinchalik, “urbonim” atamasi ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinmagan bo‘lsa kerak, 89 ecronym 89 tadqiqotlarda kam uchraydi. “Urbanonim” 89ecrony esa, asta-sekin qo‘llanish doirasini kengaytirib bordi. N. V. Podolskaya “urbanonim” atamasini “Rus 89ecronym89 terminologiyasi lug‘ati”ning birinchi nashrida asosiy atama sifatida qayd etgan. “Urbonim” atamasi esa qavs ichida ikkinchi variant sifatida berilgan [8,154]. Lug‘atning keyinchalik chop etilgan 2-nashrida faqat “urbanonim” atamasini qo‘llanganligini ko‘rish mumkin [9,139].

O‘tgan asrning 70-yillarida onomastika bo‘yicha nashr etilgan bibliografik ma’lumotnomalarda urbonim/urbanonim atamalarining qo‘llanishida sekin-asta o‘zgarish bo‘lganligini kuzatish mumkin. Masalan, uning 1-nashrining (1976) “Asosiy atama va tushunchalar indeksi” bo‘limida “urbonim”, “urbonimik tizim”, “urbonimiya” atamaları qo‘llangan [5, 159]. Keyinchalik, uning 2-nashrida (1978) “urbanonim”, “urbanonimika”, “urbanonimiya” atamalarining qo‘llanishi kuzatiladi[6,201]. 3-nashrida (1986) ham “urbanonim”, “urbanonimika”, “urbanonimik model”, “urbanonimik tizim”, “urbanonimiya” atamaları qo‘llangan [7, 178].

Onomastika sohasida ixtisoslashgan atama paydo bo‘lganiga qaramay, tadqiqotchilar turli tavsiflovchi birikmalar yoki “toponim” atamasidan foydalanishda davom etdilar. Masalan, 1985-yilda nashr etilgan «Географические названия в Москве» [1] to‘plamida “urbanonim” atamasi biron marta ham qo‘llanmagan. Shuningdek, T. Nafasovning 1988-yilda nashr qilingan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da ham “urbonim” yoki “urbanonim” atamasi uchramaydi [4]. Umuman, shu davrlarda shahar obyekti nomlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda bu atamalarni qo‘llanilganligi kuzatilmaydi. Birgina A. V. Superanskayaning “Moskvadagi shaharlararo obyektlarni nomlash tipologiyasi” maqolasida “urbanonim” atamasi faqat bir marta uchraydi [13, 162].

XXI asr boshlariga kelib, “urbanonim” atamasining qo‘llanishiga nisbatan yondashuvlar o‘zgardi. Shu dardan boshlab, shahar ichi obyektlarining atoqli oti sifatida urbanonimlar tadqiqiga alohida e’tibor va qiziqish kuchaydi. U endi muntazam ravishda dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar sarlavhalarida, shuningdek, shahar toponimik xususiyatlarini tekshirishga bag‘ishlangan nashrlar uchun kalit so‘zlar ro‘yxatida qo‘llanila boshlandi. R.V. Razumovning ta’kidlashicha, 2000-yillarda Rossiya Federatsiyasida ushbu mavzu bo‘yicha himoya qilingan 18 ta dissertatsiyaning 9 tasining nomlarida uchraydi. Ilmiy 89 ecronym kutubxona

ma'lumotlariga ko'ra, urbanonim atamasi 60 ta nashrda qo'llaniladi, ulardan 33 tasida kalit so'z sifatida keltirilgan [12,15].

Shunday qilib, "urbanonim" atamasining birinchi ta'rifi N. V. Podolskayaning "Rus 90 ecronym 90 terminologiyasi lug'ati"ning 1-nashrida berilgan. Bu atama lug'atda shunday izohlanadi: "Toponimning bir turi. Har qanday shahar ichidagi topografik obyektning atoqli oti, shu jumladan, agoronimlar, godonimlar, alohida binoning nomi va shahar horonimlari" [8,154]. Lug'atning 2-nashrida ta'rifning asosiy mazmuni o'zgarishsiz keltirilgan bo'lib, faqat urbanonimlarning turlari hisoblangan atoqli otlarning tarkibiga aniqlik kiritilgan: "agoronimlar, godonimlar, shahar xoronimlari, ekklezionimlar, oykodomonimlar" [9,139]. Demak, unda "alohida binoning nomi" ni tavsiflovchi terminologik ibora bir so'zdan iborat "oykodomonim" atamasi bilan almashtirilgan, lug'atning birinchi nashrida mustaqil onim turi sifatida qayd etilgan ekklezionim atamasi 2-nashrda shahar ichidagi obyektlarga nisbat berilgan.

Lug'atda atamaga berilgan ta'rifning asosiy qismi («har qanday shahar ichidagi topografik obyektning o'ziga xos nomi»), bizningcha, belgilanayotgan hodisaning mohiyatini juda to'g'ri belgilaydi. Biroq, ushbu atamaning ilmiy nashrlarda qo'llanilishi tahlili ushbu ma'noning uchta mumkin bo'lgan o'zgarishini ko'rsatadi: "shahar nomi", "har qanday shahar ichidagi obyektning nomi, shu jumladan savdo obyektining nomi: do'kon, kafe, restoran va boshqalar", "qishloq ichidagi obyektning nomi".

E. Begmatov va N.Uluqovlarning "Onomastik terminlarning izohli lug'ati" da "urbanonim" atamasi quyidagicha izohlangan: "shahar ichida joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli oti (agoronim, godonim, xoronim, ekklezionim, oykodomonim). Toponim turi". Shuningdek, bu atama bilan bog'liq bo'lgan "urbanonimika", "urbanonimiya" atamalari ham keltirilgan [17, 87].

Ma'no o'zgarishining birinchi 90 ecrony lug'atning birinchi nashrida N.V.Podolskayaning o'zi tomonidan qayd etilgan: "ba'zida bu atama oikonim yoki astionim o'rniga ishlatiladi" [8, 154]. Ma'no o'zgarishining ikkinchi 90ecrony shahar makonida ishlaydigan mutlaqo barcha turdagi atoqli otlarni urbanonimlar sifatida tasniflash bilan bog'liq. T. V. Shmeleva «Rossiya shahri onomastikoni» [16] tadqiqotida ijtimoiy institutlarning nomlarini, ya'ni odamlarning turli faoliyatlariga ko'ra birlashmalarini urbanonimlar deb izohlaydi [16, 6], lekin aslida ular ergonim atamasi bilan belgilanadi. Birinchi marta bunday talqin A. M. Mezenkoning "Belarus urbanonimiyasi" ishida uchraydi[3]. Tadqiqotchi urbanonim deganda "shahar ichidagi obyektlarning barcha nomlari yig'indisini tushunadi va ularga chiziqli obyektlar (ko'chalar, tor ko'chalar, xiyobonlar, proyezdlar, tupiklar, liniyalar va

boshqalar), hududiy (maydonlar, skverlar, parklar, bozorlar, tumanlar, suv havzalari va boshqalar) va hajmli obyektlar (cherkovlar, kostellar, monastrlar, kinoteatrlar, mehmonxonalar, kafelar, yodgorliklar va boshqalar)”ni kiritadi [3, 4]. A. V. Superanskaya o‘zining monografiyasida: “Shahar ichidagi obyektlar nomlarining yig‘indisi odatda urbanonimlar deb ataladi”, degan izohni keltirgan [14,72]. Lekin tadqiqotchi muassasa nomlarini urbanonimlar qatoriga kiritmaydi va buni quyidagicha sharhlaydi: “Ayrim binolar va ularda joylashgan muassasalarning nomlari o‘rtasidagi farqni ta’kidlash zarur. Senat bino sifatida urbanonim hisoblanadi. “Senat muassasa sifatida boshqa joyda (maktabda) yig‘ilishi mumkin, favqulodda vaziyatlarda esa Senat binosida kasalxona bo‘lishi mumkin. Tashkilot, korxona, muassasa nomlari — ergonimlar urbanonimlar bilan qisman kesishadigan mustaqil atoqli otlar guruhini tashkil qiladi» [14, 75].

Nazarimizda, urbanonimning mohiyatini tushunishga atama ta’rifiga kiritilgan “topografik” so‘zi yordam beradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘z quyidagicha izohlangan: “topografiya va topografga oid, topografiya ishlari uchun xizmat qiladigan, topografiya usullari bilan tayyorlangan” [18, 5, 347]. Topografiya tushunchasi ikkita ma’noni o‘z ichiga oladi: 1) “yer yuzasi va uni o‘lchash usullarini o‘rganuvchi geodeziya bo‘limi”; 2) “aholi punktini yoki ma’muriy-hududiy birlikni geografik jihatdan tavsiflovchi xususiyatlar majmui”. Demak, faqat yer yuzidagi ma’lum bir nuqtada aniq geografik aloqaga ega bo‘lgan va onimning manzil funksiyasini amalga oshiroladigan obyektni topografik deb hisoblash mumkin.

Ko‘rinadiki, ergonimlarni topografik obyektlar deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki urbanonimlardan farqli o‘laroq, ular shaharning 91ecronym91 makonining o‘zagiga emas, balki chekka qismiga tegishli. Ular ma’lum bir joyga bog‘lanmagan, osongina o‘zgaradi va tezda yo‘qoladi va bir obyektidan ikkinchisiga o‘tkazilishi mumkin. Masalan, tijorat tashkilotining bir xil nomi bir vaqtning o‘zida shahardagi bir nechta obyektlarga tegishli bo‘lishi mumkin (“Navro‘z” kafesi, “Navro‘z” 91ecronym9191t, “Navro‘z” to‘yxonasi va boshqalar). Bundan tashqari, xuddi shu tijorat tashkiloti egalik huquqining o‘zgarishi sababli o‘z nomini qayta-qayta o‘zgartirishi mumkin (“Navro‘z”→”Bahor”, “Ekonom”→”Dubai” → “Dixie” va boshqalar). Yana bir jihat, ko‘pgina tijorat obyektlari nisbatan kichik joylarni egallaydi, ya’ni bir bino ichida bir nechta turli muassasalar va tashkilotlar joylashishi mumkin.

So‘nggi yillarda rus onomastikasida ‘названия внутрисельских объектов’(“qishloq ichidagi obyektlarning nomlari”) termini paydo bo‘ldi. O‘zbek tili onomastikasida hali bu tushunchani ifodalaydigan atama uchramaydi. Ma’lumki, N. V. Podolskaya lug‘atida ushbu turdagi onim uchun maxsus atama mavjud emas. Shuningdek, o‘zbek tilidagi 91ecronym91 lug‘at yoki ilmiy ishlarda ham bunday

atama uchramaydi. Ikkala tillarda nashr qilingan onomastika lug'atlarida berilgan "godonim" atamasi ("shahardagi chiziqli obyektning nomi, jumladan, 92ecronym, ko'cha, liniya, yo'lak, proyezd, bulvar, qirg'oq") keng tarqalmagan. O'zbek onomastikasida haligacha godonimlar tadqiqiga bag'ishlangan ayrim maqolalarni hisobga olmaganda, monografik ishlar yo'q hisob. Belarus 92ecronym92 A. M. Mezenko tomonidan qishloq ichidagi topografik obyektlar (ko'chalar, yo'laklar, maydonlar) nomlarini belgilash uchun "vikonim" atamasi taklif qilingan edi [5]. Lekin bu atama haligacha ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tiborsiz qolmoqda. Ehtimol, bu qishloq ichi obyektlarini o'rganishga u qadar qiziqishning yo'qligi bilan bog'liqdir.

R.V. Razumovning fikricha, 92ecronym92 terminologiyaning yangi lug'atini tayyorlashda urbanonimlarning turlariga tegishli atoqli otlar tarkibini qayta ko'rib chiqish zarur [12,15]. "Rus 92ecronym92 terminologiyasi lug'ati"ning 2-nashrida bu turdagi onimlar agoronimlar, godonimlar, shahar xoronimlari, ekklezionimlar va oykodomonimlarni o'z ichiga oladi [93,139]. Bu kabi atoqli otlarning barchasini urbanonimlar turkumiga kiritish mumkin, chunki ularda topografik xususiyatlar mavjud bo'lib, shahar hududi bilan bevosita bog'langan. Lekin bu o'rinda oykodomonim atamasini qo'llanishi bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Chunki, bu atama ba'zan "tijorat subyekting atoqli oti" ma'nosida ham qo'llanish holatlari uchraydi.

T. V. Shmelevaning ta'kidlashicha, oykodomonim va ekklesionim atamalari yordamida shahar tuzilmalari nomlari va qo'llanish xususiyatlarini tasvirlashning iloji yo'q [16, 8]. Muallif tegishli atamalarga ega bo'lmagan onimlar sifatida ko'priklar, vokzallar, metro bekatlari, bozorlar, qabristonlar, parklar, shahar bog'lari nomlarini e'tirof etadi [16, 8]. R.V. Razumov 92ecro'yxatga yodgorliklar, favvoralar, jamoat transporti bekatlari nomlarini ham kiritishni va umumiy ro'yxatdan ergonimlar qatoriga kiruvchi bozor nomlarini chiqarib tashlashni taklif qiladi [12,18].

Nazarimizda, bu turdagi atoqli otlar uchun maxsus atamalarning yo'qligi ularning shahar onimik makonidagi periferik pozitsiyasi bilan bog'liq. Ularning aksariyati aholi punktlarida kamchilikni tashkil etganligi uchun tadqiqot obyekti sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortmagan. Yuqorida keltirilgan obyektlardan biri qabriston nomlari uchun, garchi juda kam qo'llanilsa-da, maxsus atama onomastikada mavjud. N.V.Podolskaya lug'atida bunday atoqli otlarga nisbatan "92ecronym" atamasi qo'llanilgan [9, 86]. Mazkur lug'atning ikkala nashrida ham parklar, bog'lar va maydonlar nomlari uchun "drimonim" atamasi qo'llanilgan: «собственное имя любого лесного участка, леса, бора, роши (греч. Δρυμός – 'дубовая роща, лес, роща' + оним)» [9, 57]. Shahar ichi hududiga tegishlilikini ifodalash uchun atamaga

urbo- (urbodrimonim) elementini yoki shahar xoronimi atamasiga o‘xshash shahar drimonimi shaklida qo‘llash mumkin.

V. I. Suprun ko‘prik nomlari uchun gefuronim (yunoncha γέφυρα – “ko‘prik”) atamasini kiritishni taklif qilgan [15]. Ko‘priklar nafaqat shahar makonida, balki shahar atrofi hududlarida ham bo‘lganligi sababli, ularni aniqlashtirish uchun “urbogefuronim” yoki “shahar gefuronimi” atamalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shaharichi obyektlariga tegishli atoqli otlarning yana bir turi yodgorliklar, monumentlar, memorial komplekslar nomlarini o‘z ichiga oladi. Bunday onimlar uchun mutaxassislar tomonidan “monumentonim” (lotincha monumentum – “yodgorlik”) atamasidan foydalanish taklif qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, onomastika sohasiga oid terminologiya lug‘atlarida urbanonim atamasining ta’rifi ular belgilagan obyektning topografik joylashuvini va ularning toponimlar sifatida tasnifini ko‘rsatishi kerak. Ergonimlarga tegishli nomlarni o‘ziga xos xususiyatlar va belgilar asosida farqlagan holda ushbu turga kiritmaslik kerak. Onomastik terminologiya lug‘atlarida agoronimlar, godonimlar, shahar gefuronimlari, shahar horonimlari, ekklesionimlari, oykodomonimlari, shahar drimonimlari, nekronimlari, yodgorliklari, favvoralar nomlari, avtobus bekatlari nomlari urbanonimlarning turlari sifatida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. O‘zbek tili onomastikasida urbanonimlarni alohida o‘rganish obyekti sifatida lingvistik aspektda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbek tili onomastik terminologiyasining yangi lug‘atini tayyorlash va bunda yuqorida ko‘zda tutilgan muammolarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

References:

1. Географические названия в Москве [Текст] / Отв. ред. Е. М. Поспелов. – М.: Мысль, 1985. – 224 с.
2. Mezenko, A. Vikonimika kak razdel toponimiki: sostoyanie, perspektivy [Текст] / A. Mezenko // Nowe nazwy własne – nowe tendencje badawcze / red. A. Cieślukowej [i dr.]. – Kraków: PANDIT, 2007. – S. 379–390.
3. Mezenko, A.M. Urbanonimiya Belorussii [Текст]: avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk / A. M. Mezenko. – Minsk, 1991. – 35 s.
4. Nafasov T. Uzbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Ukituvchi, 1988. -179 b.
5. Onomastika: Ukazatel' literatury, izdanno v SSSR s 1963 po 1970 gg. [Текст] / Отв. ред. Н. В. Подольская. – М., 1976. – 206 с.

6. Onomastika: Ukazatel' literatury, izdannoj v SSSR v 1971–1975 gg. s prilozheniem za 1918–1962 gg. [Tekst] / Otv. red. R. R. Mdivani, N. V. Podol'skaya. – M., 1978. – 304 s.
7. Onomastika: Ukazatel' literatury, izdannoj v SSSR v 1976–1980 gg. [Tekst] / Otv. red. R. R. Mdivani, N. V. Podol'skaya. – M., 1984. – 268 s.
8. Podol'skaya, N. V. Slovar' russkoj onomasticheskoy terminologii [Tekst] N. V. Podol'skaya. – M.: Nauka, 1978. – 200 s.
9. Podol'skaya, N. V. Slovar' russkoj onomasticheskoy terminologii [Tekst] / N. V. Podol'skaya. – 2-e izd., pererab., dop. – M. : Nauka, 1988. – 192 s.
10. Podol'skaya, N. V. Urbanonimiya central'nyh oblastej RSFSR [Tekst] / N. V. Podol'skaya // Toponimiya Central'noj Ros-sii (Voprosy geografii. Sb. 94) / Otv. red. E. M. Pospelov. – M. : Mysl', 1974. – S. 123–129.
11. Podol'skaya, N. V. Urbonimiya Centra [Tekst] / N. V. Podol'skaya // Toponimiya Centra: tezis dokladov. – M., 1972. – S. 26–27.
12. R. V. Razumov Ob uporyadochenii onomasticheskoy terminologii v oblasti urbanonimii // Verhnevolzhskij filologicheskij vestnik – 2015 – № 2. -C.14 – 19.
13. Superanskaya, A. V. Tipologiya imenovaniya vnutrigorodskih ob'ektov [Tekst] /A. V. Superanskaya // Geograficheskie nazvaniya v Moskve. – M. : Mysl', 1985. – S. 160–170.
14. Superanskaya, A. V. CHto takoe toponimika? [Tekst] / A. V. Superanskaya. – M.: Nauka, 1985. – 178 s.
15. Suprun, V. I. Razmyshleniya nad onomasticheskoy terminologiej [Tekst] / V. I. Suprun // Izvestiya VGPU. – 2011. – №8. – S. 133–138.
16. Shmeleva, T. V. Onomastikon rossijskogo goroda [Tekst] / T. V. SHmeleva. – LAP LAMBERT Academic Publishing, 2014. – 138 s.
17. Begmatov E., N.Uluqov N. Onomastik terminlarning izohli lug'ati. Namangan, 2006. -105 b.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. - Toshkent: Gofir Gulom nashriyori, 6-jild, 2023. -720 b.